

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar-iyunida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 14 765,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-iyun yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 3 993,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,3 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish (yanvar-iyun)

	Mlrd.so'm		2018y. ga nisbatan % da
	2018y.	2019y.	
I. YaHM	11 087,3	14 765,3	105,2
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 596,4	13 871,6	105,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	490,9	893,7	107,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 596,4	13 871,6	105,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 854,3	4 364,1	102,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 855,0	4 518,9	109,9
sanoat	2 218,9	3 618,8	106,8
qurilish	636,1	900,1	120,8
Xizmatlar	3 887,1	4 988,6	104,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	888,6	1 063,0	105,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	792,2	879,8	106,6
boshqa xizmat tarmoqlari	2 206,3	3 045,8	103,4

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,0 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 31,5 %), sanoat – 106,8 % (26,1 %), qurilish – 120,8 % (6,5 %) va xizmatlar sohasi – 104,5% (35,9%).

2019 yilning yanvar-iyunida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 93,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,1 % ini tashkil etdi.


Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 4,9 % punktga kamaydi va hisobot yilida 31,5 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda) tarmogʻining ulushi 5,7 % punktga oʻsdi va 32,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 35,9 % ni tashkil etdi va 2018 yilning mos davri (36,7 %) bilan taqqoslanganda 0,8 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qoʻshilgan qiymati
- Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi
- Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,7 % ni (2018 yil yanvar-iyun– 8,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,3 % ni (7,5 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 21,9 % ni (20,8 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar